



ZAMONAVIY OILALARDA XOTIN-QIZLAR IMTIYOZLARINI TA'MINLANISHI VA RO'LLAR TAQSIMOTI

U.Saribayeva

orcid: 0009-0005-7230-7313

umidasaribayevna@gmail.com

F.Alimova

TAFU katta o'qituvchi

feruzaalimova@utas.uz

Turabekova Shahnoza Damirovna

v.b.dotsent, TAFU

444almaz77@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14886782>

Annotatsiya: zamonaviy o'zbek oilalarida xotin-qizlar imtiyozlarini ta'minlanishi va rollar taqsimoti gender tengligini saqlanishida muhim sanaladi. Gender tengligini saqlanishida gender stereotiplarning xam ta'siri o'rganilgan bo'lib, mazkur jamiyat uchun aynan shu tarixiy davrdagi erkaklar va ayollar o'rtasidagi farqliklar to'g'risidagi tasavvurlarni saqlanib kelayotganligini izohlaydi.

Maqolada, gender tengsizligini saqlanib qolinishida gender stereotiplarining ta'siri aniqlangan. Oilada xotin-qizlar imkoniyat va imtiyotlarini ta'minlanishi kamsitishlarning har qanday shakliga barham berishi asoslangan.

Kalit so'zlar: oila, xotin-qizlar, imkoniyat, imtiyoz, tgender tenglik, gender tengsizlik, kamsitish barham berish, ijtimoiy-madaniy rivojlanish, gender stereotiplar.

Kirish.

Gender strategiyalar samaradorligini oshirish va gender tenglikni saqlanishiga nisbatan oqilona munosabatda bo'lish butun dunyoda ustuvor vazifa sifatida qaralmoqda. O'zbekistonning 2030 yilgacha barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarida "gender tenglikni ta'minlash, xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish", "xotin-qizlarning alohida maqomi va ularga nisbatan hurmatini tiklash", gender tengsizlikni bartaraf etish yo'llarini izlab topish maqolada yoritilayotgan muammolarning dolzarbligini asoslaydi[1].

Bugungi zamonaviy oilalarda xotin-qizlar uchun yaratilayotgan imkoniyat va imtiyozlar qay ko'rinishdaligi va er-xotin o'rtasidagi rollar taqsimotida shakllangan gender stereotiplarning ta'siri mavjud.

Gender stereotiplarning ilmiy tasnifi va tahlili.

Gender stereotiplar — bu mazkur jamiyat uchun aynan shu tarixiy davrdagi erkaklar va ayollar o'rtasidagi farqliklar to'g'risidagi tasavvurlardir.

Gender stereotipi - A.V.Merenkovning takidlashicha, bu "qabul qilish xususiyati, maqsadga intiluvchanlikning, shuningdek, mazkur madaniyatda qabul qilingan muayyan jins vakili turmushi va faoliyatidagi me'yor va qoidalarni hisobga olgan holda inson xulq—atvorining dasturiy anglashilishidir"[2]

I.S.Kleynaning fikricha, gender stereotiplari deganda, "erkaklarga xos" va "ayollarga xos" tushunchalarga mos keluvchi xulq—atvor modellari va harakter xususiyatlari to'g'risidagi andazalashtirilgan tasavvurlar tushuniladi".[3]

Gender stereotiplarni guruhlariga taqsimlanishi.

Birinchisi — masqulinlik feminlik (yoki feminlilik) stereotiplari, bu erkaklarga xos ayollarga xos andazalar deb ataladi. Dastavval, maskulinlik mardlik va feminlik latofatlik tushunchalari nimani anglatishini ko'rib chiqamiz. Birinchi guruhdagi gender stereotiplarni mardlik va latofatlik haqidagi tassavurlar o'z aksini topgan muayyan shaxsiy fazilatlar va ijtimoiy — psixologik xususiyatlar yordamida erkaklar va ayollarni tasniflovchi stereotiplar sifatida belgilash mumkin. Masalan, ayollarga passivlik, bog'liqlik, emotionallik, konformlik kabi xususiyatlar, erkaklarga esa — faollik, mustaqillik, bilimdonlik, jahldordik va hokazolar xos. Ko'rib turganimizdek, masqulinlik va feminlilik xususiyatlari qarama — qarshi qutblarga ega: faollik —



passivlik, kuch — o'zlik. N.A.Nechaevning tadqiqotlariga ko'ra, ayolning an'anaviy ideali savodhonlik, sodiqlik, kamtarlik, nazokatlik, latofatlik, itoatkorlik kabi fazilatlarini uz ichiga oladi.

Gender stereotiplarning *ikkinchi guruhi* oilaviy, professional va boshqa sohalarda **muayyan ijtimoiy rollarni mustahkamlash** bilan bog'liq. Ayollarga, odatda, asosiy rollar sifatida oilaviy (ona, uy bekasi, turmush o'rtog'i) rollar, erkaklarga esa — professional rollar belgilanadi. I.S.Kleçina ta'kidlashicha, "erkaklar o'z kasb —korida erishgan iqtisodiy qarab, ayollar esa — oilasi va bolalari mavjudligiga qarab baholanadi". Bunday andazalar negizida "haqiqiy" erkak oila boquvchisi bo'lishi, ayolning burchi esa — bolalarga g'amxo'rlik ko'rsatish va oilada muhit yaratishi kerak, degan tushuncha yotadi. Bunday andaza insoniyat jamiyatining tarixiy rivojlanishi mobaynida shakllangan va deyarli barcha jamiyatlar uchun xosdir. Faqat u yoki bu jamiyatda uning namoyon bo'lish darajasi turlicha bo'ladi.

Muayyan bir sohada (masalan, oilaviy) erkaklarga va ayollarga xos deb hisoblangan rollar majmui har xil. IOqorida ta'kidlab o'tilgan "Gender rollarni anglashga ta'sir ko'rsatuvchi ijtimoiy omillar" tadqiqotida 18 yoshdan 60 yoshgacha bo'lgan 300 kishi o'rtasida so'rovnoma o'tkazilgan, natijada er —xotin o'rtasida oilaviy majburiyatlarni taqsimlashda quyidagi differentsiya paydo bo'ldi. Jumladan, faqat ayollarga xos deb uyni tozalash, ovqat pishirish, kir yovish va dazmol qilish, idish tovoq yovish kabi rollar belgilangan. So'rov ishtirokchilarining fikriga ko'ra, oilada erkakning vazifasi pul topish, uyda ta'mirlash ishlarini bajarish, ahlatni olib chiqishdan iborat. So'rov qilinganlarning 90% ortig'i oilada erkak va ayollarning vazifasi haqidagi an'anaviy tasavvurlarni aks ettiruvchi "Ayolning asosiy burchi — yaxshi rafika va ona bo'lish" va "Erkak — bu asosiy boquvchi, oilaning boshlig'i" degan tushunchalarni qo'llab—quvvatlaganlar.

Gender andazalarning *uchinchi guruh* erkaklar va ayollar o'rtasidagi farqlikni **mehnatning muayyan turlari** bilan shug'ullanish jarayonida o'z ifodasini topgan. Jumladan, erkaklarga, odatda ijodiy va yaratuvchanlik harakteriga ega intrumental soha faoliyatidagi mashg'ulot va kasblar, ayollarga esa bajaruvchi va xizmat ko'rsatuvchi harakteri bilan farqlanuvchi ekspressiv sohalarda xos deb hisoblanadi. SHuning uchun "erkaklarga xos" va "ayollarga xos", deb ataluvchi kasblar mavjudligi to'g'risidagi fikr keng tarqalgan.

I.S.Kon tomonidan taqdim etilgan "masqulinlik" atamasi ma'nosini taxlil qilishga asoslanib, feminlik va masqulinlik tushunchalari mazmunini quyidagicha ifoda etish mumkin[4].

1. Masqulinlik va feminlik tushunchalari erkaklarga (masqulinlik) yoki ayollarga (feminlik) "xolisona xos bo'lgan" I.Konning ta'kidlashicha ruhiy va xulq — atvoriy xususiyatlarni aks ettiradi.
2. Masqulinlik va feminlik tushunchasi turli ijtimoiy tassavurlar, fikrlarni o'z ichiga oladi, erkaklar va ayollar qanday ekanligi va ularda qaysi xususiyatlar maqbul ekanligi aniqlanadi.
3. Masqulinlik va feminlik tushunchalarida ideal erkak va ideal ayolning me'yoriy qoliplari o'z ifodasini topadi.

Tabiiyki, keltirilgan gender andazalarning tasnifi to'liq emas, va etarli darajada shartli harakterga ega bo'lib, tahlil uchun qulay bo'lishi hisobga olingan. SHubhasiz, gender stereotiplari rang — barangdir va ularning qo'llanilishi doirasi keng.

3. Eksperimental natijalar va ularning psixologik tahlili

Tadqiqotimizda o'zbek oilalarida erkaklar va ayollarga xos bo'lgan xususiyat va fazilatlar, ular o'rtasidagi gender rollar taqsimoti va undagi farqlik tafovutlari aniqlandi.

YA'ni, "Ayol" va "erkak" larga xos oilaviy rollar haqidagi tasavvurlari o'rganildi. Natijada, ayollar aksariyat hollarda ona, uy bekasi, uy vazifalariga ma'sul, bola tarbiyalovchisi va salomatligiga javobgar, kir yovuvchi, oshpaz, uy tozalovchi tushunchalari bilan izohlangan. Erkak esa — oila tayanchi, himoyachi, ota, moliyaviy ta'minotchi, uy posboni, so'zlar bilan xarakterlangan. Jumladan xissey fazilatlarini vafodor, itoatkor, mehr — oqibatli, ehtirosli, ba'zan injiq, yoqimli ayollik fazilati,— intiluvchan, kuchli, aqlli, jasur, muloxazali, tajovvuzkor, qo'rs, qo'pol, rashkchi kabi xususiyatlar erkakka xos deb baholangan.


Bu kabi tasavvurlarni shakllanganligi er va xotinlarda gender stereotiplarining namoyon bo'lishini izohlaydi.

Zamonaviy tipdagi oiladagi er-xotin munosabatlarida psixofiziologik omillar ahamiyatini ortib borishi kuzatildi, ya'ni bir-birlariga o'zaro hurmat ko'rsatilishi – boshqa oila a'zolarini oldida yaxshi muomalada bo'lishi, oilaviy masalalarda qaror qabul qilishda maslahatlashishi, ayol kishini fikrini inobatga olinishi, hissiy – emoional omillar: muloyimlik, mehr-muhabbatli bo'lishi, ruhlantirishlari, minatdorchilik bildirib turishlari, g'amxo'rlik ko'rsatishlari borasida - oilaviy romushlarni bajarishda yordam berishi, og'irlikni o'z zimmalariga olishi qayd etilgan.

Ayollar dam olish, xordiq chiqarish borasida oilaviy birdamlik, ota-ona va farzandlarni birgalikdagi xordiq chiqarishlarini istashlarini bildirishgan.


SHuningdek, oilada er-xotinlar o'rtasidagi rollarni qanday taqsimlashlari, ularning rollar taqsimotidagi ishtirokini o'rganish maqsadida "Oiladagi rollarni taqsimlash" so'rovnomasi erkaklar va ayollar o'rtasida oilaviy rollarni taqsimlash bo'yicha shaxsiy munosabatlarni o'rganish uchun mo'ljallangan. Yu.E.Aleshina, L.YA.Gozman, E.M.Dubovskayalarning "Oilada rollar taqsimoti" savolnomasidan foydalanildi va er-xotinlarning oilaviy rollarni taqsimlash bilan bog'liq gender qarashlari aniqlandi. Tadqiqotimizda, "gender stereotiplari" tushunchasiga binoan, erkaklar va ayollarni ifodalovchi xususiyat va ta'riflar asosida ularning oiladagi rollar taqsimotiga munosabatlari o'rganildi.

So'rovnomaning baholash me'yoriga ko'ra har ikkita toifa oilalardagi rollar taqsimotining psixologik profili shakllantirildi (1-2-rasmlar, 1-jadval).



1-rasm. Namunaviy oiladagi rollar taqsimotining psixologik profili

Namunaviy oilalardagi rllar taqsimoti bo'yicha shakllantirilgan psixologik profilga ko'ra er-xotinlarning rollar taqsimoti bo'yicha ulushlari o'ziga xos va ijobiy ko'rinish oldi.



2-rasm. Nizoli oiladagi rollar taqsimotining psixologik profili

Nizoli oilalarda bolalarni tarbiyalashdagi rollar taqsimotida ayollar tomonidan berilgan javoblarda 4,41; erkakni bu parameter bo'yicha ayoliga bahosi 1,7 ni tashkil etib oradagi tafovut ancha katta.

1-jadval

Oilaviy rollarni taqsimlash bo'yicha shaxsiy munosabatlarni o'rganish (Nizoli oila ko'rsatkichlari) (N=95)

Tasdiqlar	Ayol o'ziga	Erkak o'ziga	Student t-mezon	R	Ayol eriga	Erkak ayoliga	Student t-mezon	R
Bolalarni tarbiyalash	4,41	2,02	2,711	0,01*	1,8	1,7	0,218	0,188
Oilani moddiy qo'llab-quvvatlash	3,08	1,40	2,245	0,05*	1	2	1,24	0,419
Oiladagi hissiy muhit	1,58	1,23	0,924	0,628	0,7	1,1	1,447	0,611
O'yin kulguni tashkil etish	1,71	1,84	0,478	0,350	1,2	0,8	1,368	0,381
Uy egasi-xo'jalik bekaligi roli	3,68	1,55	2,712	0,01*	1,4	1,8	1,325	0,470
Jinsiy hamroh	2,01	1,28	2,166	0,05*	0,7	1,2	0,066	0,274
Oilaviy madaniy hordiqni tashkil etish	1,76	1,87	1,520	0,877	1	0,6	1,334	0,570

Izoh: *- $r \leq 0,05$; ** - $r \leq 0,01$

Ayollarning ko'rsatkichlarida bolalarni tarbiyalashdagi etakchilik vazifasi «o'zim» bajarayapman degan munosabat kuzatildi, jumladan bolalar tarbiyasida er-xotin nizolarini kuzatish mumkin.

Xulosa. zamonaviy o'zbek oilalarda rollar taqsimoti oila toifasi va er-xotinlarning o'zaro bir-biriga munosabat xususiyatlariga bog'liq. Agar oilaga namunalilik xos bo'lsa, ularda rollar taqsimoti har bir a'zosining bioijtimoiy tabiatiga ko'ra va zimmasidagi vazifaga ko'ra taqsimlanadi. Rollar taqsimotini o'zaro



baholashda esa o'zaro hurmat, hissiy yaqinlik muhiti ham saqlanishi muhimligi aniqlandi. Ziddiyatli oilalarda esa rollar taqsimotida nomutanosiblik kuzatildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 20 oktyabrdagi "2030 yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 841-sonli qaror // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 23.10.2018 y., № 09/18/841/2081.
2. Меренков А.В. Социология стереотипов. - Екатеринбург: Изд-во Урал. Ун-та, 2001, с. 161.
3. Клецина И.С. Гендерная социализация. Учебное пособие. С.-Петербург, изд-во РГПУ им.А.И.Герцена, 1998. С.19.
4. Кон И.С. Мужской исследования: меняющиеся мужчины в изменяющемся мире, //ъ кн.Введение в гендерные исследования. 4.1: Учебное пособиеПод ред.И.А. Жеребкиной-Харьков: ХЦГИ, 2001; СПб.: Алетейя, 2002. С.571-572.